



MANTIQUIY FIKRLASHNING INSON TAFAKKURINI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Xo'jaqulov F.N.

Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: mantiqiy fikrlash, individual xususiyatlar, masala yoki topshiriq, ko'p qirrali, murakkab.

Ключевые слова: логическое мышление, индивидуальные особенности, проблема или задача, многогранный, сложный.

Key words: logical thinking, individual characteristics, problem or task, multifaceted, complex.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mantiqiy fikrlashga tayyorlash dastavval bo'lajak kadrlar misolida davlat va jamiyat buyurtmasiga hamda talabalarning kasbiy ehtiyojlariga mosligini ta'minlashda ularning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini amalga oshirishda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini rivojlantirishi va o'z-o'zini namoyon qilishiga yordam beradi. Shu bilan birga bu faoliyat jarayonida ularda nazariy yondashuvlar, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatli, kommunikativ-kognitiv kabi nazariy yondashuvlarni amalga oshirishda uzluksizlik va differensial, modul, o'zaro ta'sir, refleksivlik, ilmiy-metodik kuzatuv tamoyillariga asoslangan holda uning mazmuni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mantiqiy fikrlash – inson tomonidan ko'rib, eshitib, bilib, his qilib va anglanib turgan borliq, voqelik yoki taassurotlarning boshqalar uchun ham tushunarli tarzda tafakkur etilishini anglatuvchi tushuncha. Mantiqiy fikr yuritish qobiliyati barcha sog'lom insonlarga xosdir. Insonning bilish faoliyati uchun mantiqiy fikrlash universal xarakterga ega. Tafakkur ko'p qirrali, murakkab, shu bilan birga, bir butunni tashkil etadigan aqliy jarayondir. Mantiq deganda insonlarning kundalik faoliyatida, munosabatlarida, tartibli, aniq, asosli, ya'ni mantiqiy o'ylay olishi tushuniladi. Barcha insonlarning fikrlash qonuniyatlari bir xil bo'lganidan turli tillardagi so'zlarning ma'nosini tushuna olamiz. Mantiqiy fikrlash insonning ilmiy va amaliy faoliyati sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiqiy fikrlashning

olam va undagi voqea-hodisalar, inson va tabiat o'rtasidagi muntlarning mohiyatini teran anglash va shu asosda hayotni to'g'ri tashkil etish borasidagi o'rni beqiyosdir.

Xususiy didaktikada o'quvchilarning fikrlash faoliyatini ravojlantirishga oid ko'plab ilmiy yondashuvlar mavjud. So'nggi yillarda fan-texnikaning rivojlanishi natijasida fanlarni o'qitish, o'quvchilarda fikrlashni ravojlantirish texnologiyalari ham takomillashtirildi. Mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan izlanishlar shuni ko'rsatdiki, ta'limning yangi paradigmasiga o'tilishi munosabati bilan o'quvchilarning fikrlash faoliyatini ham yangi sifat bosqichiga ko'tarish ehtiyoji kuchaydi. O'quvchilarning mantiqiy fikrlashini ravojlantirish masalasida mutaxassislar turlicha yondashuvlarni ilgari surganlar. O'quvchilarda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartlariga mos bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni hosil qilish, umummadaniy ko'nikmalarni shakllantirish, ularni jamiyat hayotiga tayyorlash, mustaqil fikrlashni ravojlantirish, vatanparvarlik, mustaqillik tamoyillari asosida demokratiyaga sodiqlik hissini shakllantirish o'quv jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchi shaxsini har tomonlama shakllantirish, ularda mantiqiy fikrlash faolligini tarkib toptirish uchun qulay davr hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqning rivojlanishi bilan bir qatorda fikrlash faolligi ham vujudga keladi. O'quvchining taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, tizimlashtirishga oid dastlabki ko'nikmalari uning o'z fikrlarini mantiqiy izchillikda aniq, obrazli, ravon bayon qila olishida namoyon bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini ravojlantirishda darslar, darsdan tashqari ishlar, bu jarayonda taqdim etiladigan og'zaki mashqlar ham muhim o'rin egallaydi. An'anaviy darslarda esa o'qituvchilar o'quvchilarga yozma mashqlar bajartirishga alohida e'tibor qaratganlar. Bu jarayonda o'quvchining diqqati asosan masala va topshiriqlarni to'g'ri yozishga qaratiladi. Ko'chirib yozilayotgan masala yoki topshiriqning mazmuniga o'quvchilar yetarlicha e'tibor qaratmaydilar. O'quvchilarning mantiqiy fikrlashini ravojlantirish abstrakt-obrazli tafakkurini ravojlantirish maqsadida o'qituvchilar maxsus tanlangan maqsadga yo'naltirilgan og'zaki mashqlar tizimidan foydalanishlari lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlashini ravojlantirishda og'zaki mashqlardan foydalanish muammosi o'quv jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash bilan bevosita bog'liq. Bu sohada quyidagi muammolar mavjud: boshlang'ich sinflarda ta'limning ravojlantiruvchi imkoniyatlarini kuchaytirish zaruriyati bilan ularda mantiqiy fikrlashni maqsadga qaratilgan savol va og'zaki mashqlar vositasida ravojlantirishga xizmat qiladigan metodikani ishlab chiqilmaganligi; sinfdan tashqari ishlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-biluv faoliyatini tashkil qilishda og'zaki mashqlardan o'quvchi shaxsini ravojlantirish uchun foydalanishning zaruriyatining mavjudligi; boshlang'ich sinf



daralarida yozma yechiladigan misol, topshiriqlar bilan ogʻzaki mashqlarning oʻzaro bogʻliqligi, bunda ogʻzaki mashqlardan foydalanish imkoniyatlarining batafsil ochib berilmaganligi.

Mantiqiylik – tafakkurning, yozma va ogʻzaki nutqda fikrlash qonunlariga amal qilish jarayonidir. Bu jarayonda ayniyat, ziddiyat, inkorni inkor qonunlari oʻzaro uygʻun holda namoyon boʻladi. Ayniyat qonuni har bir narsa-hodisaning aynan oʻziga tengligini, fikrda, soʻzlashuv va matnlarda takror soʻzlarni toʻgʻri qoʻllashni bildiradi. Ziddiyat qonuni bir vaqtning oʻzida har bir voqea-hodisani ziddi boʻlmasligini taqozo etadi. Inkorni inkor qonuni esa muayyan sharoitda voqea-hodisalar aynan oʻsha holatda boʻlishi yoki boʻlmasligini bildiradi. Insonning nutqi, ilmiy-pedagogik, rahbarlik faoliyati mantiqiy fikrlash bilan uygʻun boʻlishi zarur. Shundagina faoliyatning barcha sohalarida mantiqiy ketma-ketlik, izchillik va muayyan samaraga erishish mumkin.

Mantiqsizlik – mantiqiy fikrlashning aksidir. Mantiqiy fikrlash maʼnaviy-maʼrifiy sohada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi faoliyatni mantiq qonuniyatlari asosida tashkil etish maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarning izchilligi, taʼsirchanligi va samaradorligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Vygotskiy, L.S. Fikrlash va nutq//L.S. Vygotskiy - M: AST, 2005 yil.
2. Shodiyev R.D., Yuldoshev J.T., Xudoynazarov E.M. Matematika daralarida sinfdan tashqari ishlar. Oʻquv qoʻllanma//Qarshi davlat universiteti, Fan va taʼlim nashriyoti. 2023. 62 b.
3. Yuldoshev J.T. Oʻquvchilarni mantiqiy va nostandart fikrlashga oʻrgatish usullari. Urganch davlat pedagogika institute axborotnomasi. Ilmiy nazariy metodik jurnal. 2023 №1.
4. Berdiyev B. R. “The use of independent learning in the formation of mathematical concepts in reschoolers”// Journal NX A Multidisciplinary Peyer Reviewed Journal, Volume-6, Issue-7,Indonesia. – 2020 358-360 p.
5. Berdiyev B. R. Xalqaro baholash dasturlari asosidagi innovatsion usullardan foydalangan holda oʻquv materiallarini ishlab chiqish va taqdim etish. // “Toʻshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari”, ilmiy - nazariy jurnal 5-son. Toʻshkent. -2022. 56-66 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlangʻich sinf oʻquvchilarni mantiqiy fikrlashlarida oʻqituvchilarni tutgan oʻrni, usullari va yaratgan topshiriqlari haqida qisqa mazmunli tushunchalar keltirilgan. Mantiqiy tushunchalar orqali oʻquvchilarni tafakkurini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar haqidagi maʼlumotlar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлено краткое понимание роли учителя в логическом мышлении учащихся младших классов, создание методов и заданий. Приведены сведения о мероприятиях, направленных на совершенствование мышления учащихся посредством логических понятий.

SUMMARY

This article presents a brief understanding of the role of teachers in the logical thinking of elementary school students, methods and tasks created. Information about measures aimed at improving students' thinking through logical concepts is given.